



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI**

2024- yil “19” fevral

BUYRUQ № 20

Toshkent sh.

**“Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash
bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash haqida**

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020- yil 3- avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining milliy statistika tizimini yanada takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4796-son qarori ijrosini ta‘minlash, rasmiy statistika sohasida uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, **buyuraman:**

1. “Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom” ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2020- yil 23- iyuldagi “Uy-joy fondini obodonlashtirish statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risidagi 24- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur buyruq tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiritilsin.

Direktor

B. Begalov